

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

Bilimningga ishon va muvaffaqiyatga erish!

BILIM VA MALAKALARNI BAHOLASH AGENTLIGI

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI, AKADEMIK LITSEYLAR
VA KASB-HUNAR KOLLEJLARI O'QUVCHILARINING
UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
OLIMPIADASINING IV (RESPUBLIKA) BOSQICHI
ISHTIROKCHILARI UCHUN

GEOGRAFIYA
FANIDAN
TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test varianti 40 ta (1–40) topshiriqdan iborat.

Test topshirig'i uchun ajratilgan ball har bir test topshirig'ida aks ettirilgan.

Kitobda yopiq va ochiq turdagi test topshiriqlari mavjud:

– yopiq turdagi test topshiriqlarida bitta javobni (A, B, C yoki D) tanlang va javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga yozing;

– ochiq turdagi test topshiriqlarining javobini javoblar varaqasidagi topshiriq raqamiga mos qatorga aniq va tushunarli tarzda yozing;

– moslashtirishni talab qiluvchi yopiq test topshiriqlari uchun umumiy oltita (A–F) javob varianti berilgan, uchta topshiriqqa (38-, 39-, 40-test topshiriqlariga) ushbu javoblar orasidan mos ravishda bittadan javob tanlang va javoblar varaqasiga belgilang.

1.

[1,3 ball]

Tabiiy geografiya doirasida shakllangan fanlar va fanlarning o'rganish obyektlari.

1	landshaftshunoslik	a	iqlim hususiyatlari
2	geomorfologiya	b	Yer yuzi relyefi
		c	kichik hududlar tabiatining tuzilishi
		d	tuproqlarning tarqalishi

Fanlar va ularning o'rganish obyektlarini moslashtiring.

- A) 1-d, 2-b B) 1-a, 2-b C) 1-c, 2-b
D) 1-c, 2-d

2.

[1,3 ball]

Vaqt mintaqalarining tartib raqami boshlanadigan **meridianni** aniqlang.

- A) 180° B) 0° C) 90° shq.u.
D) 90° g'.u.

3.

[2,4 ball]


Yerning o'z o'qi atrofida aylanishida masofa hisobiga **tezligi eng katta bo'lgan nuqtani** aniqlang (javoblarda nuqtalarning geografik koordinatasi berilgan).

- A) 15° j.k., 175° g'.u.
B) 75° sh.k., 10° g'.u.
C) 25° j.k., 25° shq.u.
D) 10° sh.k., 65° shq.u.

4.

[3,4 ball]

Ushbu rasmda geolog turgan nuqtaga nisbatan mayoqning azimuti 345° ga teng.



Geolog turgan nuqtaga nisbatan binoning yo'nalishi ufq tekisligining qaysi oraliq tomoniga mos kelishini aniqlang.

- A) shimol-shimoli-sharq
B) janub-janubi-sharq
C) shimoli-sharq-sharq
D) janubi-sharq-sharq

5.

[1,3 ball]

Qurg'oqchil o'lkalarda, ayniqsa qumli cho'llarda ihota daraxtlarni barpo etish qaysi tabiiy geografik jarayonning ta'sirini kamaytiradi?

- A) karst B) deflatsiya C) abraziya
D) nurash

6. [2,4 ball]
- “O‘rta Osiyodagi eng uzun daryo hisoblangan Sirdaryoning Farg‘ona vodiysida Qoradaryo va Norin kabi yirik irmoqlari bor. Hamda unga uncha katta bo‘lmagan daryolardan o‘ngdan Chodaksoy, Kosonsoy, Chortoqsoy, Podshoota, chapdan Xo‘jabaqirg‘on, Isfara, So‘x, Shohimardon, Isfayramsoy irmoqlari qo‘shiladi. Farg‘ona vodiysidan chiqqach unga o‘ngdan Ohangaron, Chirchiq, Keles daryolarining suvi quyiladi”.*
- Berilgan ma‘lumotlar **daryoning qaysi jihatiga oid** ekanligini aniqlang.
- A) daryo sistemasi B) daryo havzasi
C) daryo mansabi D) daryo manbayi
7. [1,3 ball]
- Atoll** bu
- A) tirik organizmlar faoliyati natijasida hosil bo‘lgan orol
B) okeandagi eng yirik molluska
C) okean suvining ustida qalashib yotgan muzlar
D) haftalab kuzatiladigan shamolsiz kunlar
8. [2,4 ball]
- Arktika havosi Antarktidanikidan iliqroq ekanligining **sababini** aniqlang.
- A) okean tubidagi yer yoriqlaridan ko‘tariladigan Yer qa‘ri issiqligi
B) yoz mavsumida ko‘proq mo‘tadil havo massalarining ta‘siri ostida bo‘lishi
C) Antarktidada Arktikaga nisbatan qutbiy tunning ko‘proq davom etishi
D) Atlantika va Tinch okeanlaridan okean tubi oqimlarining kirib kelishi
9. [3,4 ball]
- Hind okeaniga oid ma‘lumotlar berilgan javobni **toping**.
- A) meridian yo‘nalishda cho‘zilgan, shimoliy va janubiy qismlarga bo‘lingan suv osti tog‘ tizmasi bor. Bu tizmaning tepa qismini ko‘ndalang va bo‘ylama chuqur daralar – riftlar kesib o‘tgan
B) okean tubida qalinligi 1 000-3 500 m bo‘lgan dengiz, daryo yotqiziqlari katta maydonda tarqalgan; okean tagi suvosti tog‘ tizmasi (balandligi 2 500-3 300 m) bilan ikki qismga bo‘lingan
C) okeanning o‘rta kengliklarida iliq oqimlardan Shimoliy va Janubiy passat oqimlari, ularning orasida Passatlararo qarshi oqim harakatlanadi
D) subtropik iqlim mintaqasining sharqiy qismida suvining harorati past bo‘ladi, yog‘in kam yog‘adi; g‘arbiy qismida yil davomida suvi iliq, harorati ancha yuqori bo‘ladi, yog‘inlar ko‘p (1000 mm) yog‘adi
10. [1,3 ball]
- 2 ta materiklarni bir-biridan ajratib, 2 ta okeanlarni bir-biriga tutashtirib turadigan **bo‘g‘izni** toping.
- A) La-Mansh B) Magellan C) Gibraltar
D) Dreyk
11. [2,4 ball]
- Nima sababdan Finlandiyadagi ko‘llar kelib chiqishiga ko‘ra muzlik hosil qilgan ko‘llar hisoblanadi?
- A) muzlik hosil qilgan chuqurliklarda paydo bo‘lgan
B) ustki qismi deyarli yarim yil muzlar bilan qoplanib turadi
C) muzliklarni erishidan paydo bo‘lgan
D) qish faslida tubigacha muzlaydi

12.

[3,4 ball]

Yevrosiyo materigining tabiatiga oid ma'lumotlar berilgan javobni **toping**.

- A) subekvatorial iqlim mintaqasi O'rta dengizning sharqiy qirg'oqlaridan to Tinch okeangacha cho'zilgan; mintaqa savannalar va fasliy nam o'rmonlar zonasidan tarkib topgan bo'lib shunga xos o'simlik va hayvonot dunyosi shakllangan
- B) tropik mintaqasida chalacho'l va cho'l zonalari hamda savannalar shakllangan; cho'llarida o'simlik va hayvonlar (yovvoyi eshak, uchqur kiyik, sirtlon, chiyabo'ri) kam; savannalarida baland bo'yli g'allagulli o'tlar, daraxtlardan sal, tik, akatsiya va palmalar o'sadi
- C) materikning subtropik iqlim mintaqasida faqat bitta tabiat zonasi – subtropik o'rmonlar va butazorlar tarkib topgan; yozi issiq va quruq, qishi esa iliq va seryomg'ir bo'ladi; o'simliklar vegetatsiyasi yil bo'yi davom etadi
- D) tayga zonasi janubda 45° shimoliy kengligigacha tarqalgan; o'rmonlarida qora va oq qarag'ay, balzam piktasi o'sadi; hayvonlardan qora va qo'ng'ir ayiq, kiyik, o'rmon bizoni, bug'u, skuns, qizil tulki kabilar yashaydi

13.

[1,3 ball]

O'rta Osiyo o'lkasida 500 m dan 1200 m gacha bo'lgan balandliklarda tarkib topgan **balandlik tabiat mintaqasini** toping.

- A) nival B) chalacho'l C) o'rmon-dasht
D) dasht

14.

[2,4 ball]

Matnni o'qing.

“O'rta Osiyo hududining cho'l zonasida uchraydigan bu tuproqlar tarkibida chirindi miqdori 0,2-0,3 % ni tashkil etadi. Chirindili qatlamning qalinligi 25-35 cm. Tarkibida azot kam, ammo fosfor ko'p. Karbonat esa 5-7 foizga boradi. Bu tuproqlar, odatda, 20-30 cm chuqurlikdan boshlab sho'rlangan”.

Berilgan ma'lumotlar qaysi tuproq turiga oid ekanligini aniqlang.

- A) taqirli B) o'tloq-alluvial
C) sur tusli qo'ng'ir D) och bo'z

15.

[2,4 ball]

O'rta Osiyo hududida paleozoy erasining ikkinchi yarmida sodir bo'lgan **geologik voqealar va paleogeografik sharoitning** o'zgarishlarini aniqlang.

- A) Tog' burmalanishlar kuchsiz bo'lgan. Kaspiybo'yidagi past tog'lar va balandliklar ko'tarilgan. Bu davr mobaynida tog' oraliqlarida va botiqlarda ko'llar, botqoqliklar va sayoz dengiz qo'ltiqlari hosil bo'lgan.
- B) Hududini qoplab yotgan dengiz ichida orollar ko'rinishida quruqliklar hosil bo'la boshlagan. Kaledon tog' hosil bo'lishi bosqichida Qozog'iston past tog'larining g'arbiy qismi va Shimoliy Tyanshan ko'tarilgan.
- C) Dengiz chekina boshlagan va quruqliklar maydoni kengaygan. Qozog'iston past tog'larining sharqiy qismi, Markaziy Qizilqum tog'lari ko'tarilgan. So'ngra bu tog'lar yemirila boshlagan va yassitog'larga aylanib qolgan.
- D) Oldingi eralarda chekingan dengiz qayta bostirib kelgan, tog'lar yemirilib pasayib qolgan. Tog' burmalanishi natijasida Orqaoloy, Bolxon, Paropamiz, Safedko'h, Bandi Turkiston tog'lari ko'tarilgan. Tyanshan tog'i yana qaytadan ko'tarilib, yoshargan.

16.

[1,3 ball]

Nurota tog' tizmasining shimoliy yonbag'ridan ko'tarilib Hayotboshi cho'qqisini zabt etib, tog'ning janubiy yonbag'ridan tushib borgan turistlar **qaysi tabiiy geografik okrugning hududiga kelganini** aniqlang.

- A) Mirzacho'l B) Qizilqum
C) O'rta Zarafshon D) Quyi Zarafshon

17.

[2,4 ball]

Matnni o'qing.

“Okrugning janubi g'arbida grunt suvi yuza (2-3 m) bo'lib, sho'r, ichishga yaroqsiz; bo'r davri yotqiziq-lari orasida bosimli yerosti suvlari mavjud bo'lib, sho'r emas, binobarin, ulardan ichimlik suvi sifatida foydalanish mumkin; 1000-1500 m chuqurliklarida issiq mineral suvlar mavjud bo'lib, ulardan davolanishda foydalanilmoqda”.

Berilgan ma'lumotlar qaysi tabiiy geografik okrugning yerosti suvlariga tegishli ekanligini aniqlang.

- A) Quyi Zarafshon B) Quyi Amudaryo
C) Surxondaryo D) Mirzacho'l

18.

[1,3 ball]

Sintetik matolar ishlab chiqariladigan fabrika qaysi shahardagi kimyo korxonasi bilan **kooperativlashuv aloqa** o'rnata olishini aniqlang.

- A) Qo'qon B) Chirchiq C) Qo'ng'iro't
D) Samarqand

19.

[3,4 ball]

Toshkent iqtisodiy rayoniga oid ma'lumotlar berilgan javobni **toping**.

- A) Rayonda yirik IES, neftni qayta ishlash korxonasi, rangli metallurgiya va mashinasozlik korxonalari faoliyat yuritmoqda. Qurilish materiallaridan sement, kimyo mahsulotlaridan mineral o'g'itlar va sintetik tola ishlab chiqarilmoqda. Respublika ahamiyatiga ega kon-metallurgiya kombinati bor.
- B) Rayonda ikkita neftni qayta ishlash korxonasi bor, kimyo korxonalarida ikki xil mineral o'g'itlar ishlab chiqarilmoqda. Qurilish materiallari, shoyi, kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish markazlari shakllangan. Qishloq xo'jaligi yuksak intensivligi bilan ajralib turadi.
- C) Rayon sanoati, asosan, qazib oluvchi sanoat hisobiga yuksak rivojlangan. Strategik ahamiyatga molik gaz-kimyo majmuasi faoliyat ko'rsatmoqda. Tuproq va iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, sabzavot, kartoshka va mevalar yetishtirishga qulay.
- D) Rayon iqtisodiyotining rivojlanishida hududning qulay iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslar bilan yaxshi ta'minlanganligi muhim rol o'ynagan. Elektroenergetika, qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, mashinasozlik korxonalari ichki va tashqi bozor uchun mahsulot yetkazib bermoqda. Hududida uchta sanoat rayonlari vujudga kelgan.

20.

[1,3 ball]

Jahon xo'jaligining tarkibiy qismlari va korxonalar (tashkilotlar, muassasalar).

- 1) Birlamchi sektor;
2) Ikkilamchi sektor;
3) Uchlamchi sektor;
a) “Semurg” trikotaj aksiyadorlik birlashmasi;
b) “Yangi O'zbekiston” universiteti;
c) “Tovoqsoy xonbaliq” xo'jaligi.

Sektorlar va ularga tegishli bo'lgan korxonalar (tashkilotlar, muassasalar)ni moslashtiring.


- A) 1-c, 2-a, 3-b B) 1-a, 2-b, 3-c
C) 1-a, 2-c, 3-b D) 1-b, 2-c, 3-a

21.

[2,4 ball]

Davlatlar va ularga oid ma'lumotlar.

Yaponiya Koreya Respublikasi



- 1) dengiz floti yuk tashish hajmiga ko'ra jahonda yetakchilik qiladi;
- 2) kemalarni ishlab chiqarish bo'yicha jahonda yetakchi mamlakatlar qatorida turadi;
- 3) jami ekin maydonlarining yarmiga sholi ekiladi va sholikorlik dehqonchiligining yetakchi tarmog'idir;
- 4) eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan aviakosmik sanoat tarmog'i mavjud;
- 5) kimyo sanoati katta hajmda polimerlar ishlab chiqariladi.

Eyler-Venn diagrammasining qismlariga mos tushadigan javoblarni toping.

- A) I-3, II-4, III-1 B) I-1, II-5, III-4
C) I-4, II-1, III-2 D) I-3, II-5, III-2

22.

[3,4 ball]

Jahon xo'jaligining **rangli metallurgiya tarmog'iga oid to'g'ri ma'lumotlar** berilgan javobni aniqlang.

- A) Lotin Amerikasining ba'zi davlatlari turli rangli metallar qazilmalarining jahon xo'jaligi miqyosida ahamiyatli zaxiralariga ega. Braziliya yassitog'ligida joylashgan o'ltin mis konlari va GES larda ishlab chiqazadigan arzon elektr energiyasi negizida Braziliya davlati jahondagi yirik mis eksportyorlardan biriga aylandi.
- B) Yirik rangli metallar konlari negizida Appalachi tog'lari bo'ylab joylashgan Janubi-sharqiy sanoat mintaqasi shakllangan. Bu mintaqada qazib olinadigan rangli metallar AQSh da aerokosmik, elektronika, elektrotexnika tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bo'lgan. Biroq AQSh hozirgi kunda rangli metallarni ko'p turlarini import qiladi.
- C) O'zbekiston hududi rangli metallar konlariga boy. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, nodir metallar konlari Zarafshon, Mirzacho'l, Toshkent iqtisodiy rayonlarining hududida mavjud. Bu konlarni o'zlashtirish negizida sanoatning rangli metallurgiya tarmog'i yaxshi rivojlangan. Oltin, uran, mis, kadmiy ishlab chiqarishda ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega.
- D) Tojikiston zamini turli ma'danlar (uran, oltin, kumush, polimetall rudalari) zaxiralariga boy. O'rta Osiyodagi eng yirik boksit koni negizida Tursunzoda shahrida mamlakatda strategik ahamiyatga ega bo'lgan aluminij zavodi barpo etilgan. Alyuminiy Tojikiston eksportining tarkibida yetakchi o'ringa ega.

23.

[3,4 ball]

Rossiyaning **dehqonchiligiga oid** ma'lumotlarni aniqlang.

- A) Ekin maydonlarining kattaligiga va sug'oriladigan yerlarning maydoniga ko'ra jahonda peshqadamlik qiladi. Mamlakatning janubiy mintaqalarida suv resurslari taqchilligi mavjud. Bug'doy eksporti bo'yicha jahonda peshqadamlik qiladi.
- B) Mamlakat janubi va janubi-g'arbini egallagan dasht va o'rmon-dasht zonalarida donchilik yaxshi rivojlangan. Don ekinlarining yalpi hosili bo'yicha jahonning yetakchi 5 ta davlatlari qatoriga kiradi, bug'doy eksporti bo'yicha jahon miqyosida ajralib turadi.
- C) Mamlakatning shimoliy va markaziy qismlarida asosiy qishloq xo'jalik ekinlari bug'doy, arpa, kartoshka hisoblanadi. Janubdagi tog' yonbag'irlari va tog' oraliqidagi vodiylarida uzum, tamaki, makkajo'xori, kungaboqar yetishtirish yaxshi rivojlangan.
- D) Dehqonchilik qishloq xo'jaligining asosidir. Jami ekin maydonlarining asosiy qismi donli ekinlar, ayniqsa, bug'doy va sholi bilan band. Jahon mamlakatlari orasida bug'doy, sholi, kartoshka, sabzavot, meva, poliz mahsulotlari, uzum, choy, tamakining yalpi hosili bo'yicha ajralib turadi.

24.

[2,4 ball]

Qutblarda ko'p yillik muzliklar maydonining qisqarishi aynan qaysi ekologik muammo oqibatida vujudga kelganini **aniqlang**.

- A) Dunyo okeanining ifloslanishi
- B) "Issiqxona samarasi"
- C) cho'llashish
- D) qutblar ustida ozon qatlamining yemirilishi

25.

[3,4 ball]

Jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarning sanoat inqilobi davriga xos bo'lgan ma'lumotlarni **toping**.

- A) insonning tabiatga bo'lgan ta'siri kuchaya boshlagan, hunarmandchilik rivojlangan, xo'jalikda tabiiy resurslardan keng qo'llanila boshlangan; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan qonunlar yozma ravishda o'rnatilgan va amal qilingan
- B) tabiiy muhitni muhofaza qilish asosiy vazifaga olib chiqilgan, resurslarning qayta tiklanishi jamiyat hisobidan amalga oshirilgan, ekologik qonunchilik yanada takomillashgan, "ekologik madaniyat inqilobi" yuzaga kelgan
- C) geotizimlar eng kuchli o'zgargan; tabiiy resurslar juda katta miqyosda o'zlashtirila boshlangan; turli shakl va miqyosdagi geoeologik muammolar tarkib topgan; ekologik bilim, ong, madaniyat shakllangan va rivojlangan; ekologik tashkilotlar tuzila boshlangan
- D) tabiiy landshaftlar tez sur'atlarda o'zgaraga boshlangan; qishloq xo'jaligida tub burilish amalga oshirilgan; geotizimlarda ekologik tanglik vujudga kelgan; tabiat bag'ridan uning boyliklari ayovsiz "yulib olingan"; regional miqyosdagi geoeologik muammolar tarkib topgan

26.

[1,3 ball]

Ingliz tili davlat tili maqomiga ega **bo'lmagan** davlatni **toping**.

- A) Gaiti
- B) JAR
- C) Yangi Zelandiya
- D) Nigeriya

27.

[3,4 ball]


“2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da **migratsiyaga oid** belgilangan vazifani aniqlang.

- A) – xalqaro axborot bozorlariga chiqish, O‘zbekistonning ijobiy imijini ilgari surish mexanizmlari, vositalari va kanallarini birgalikda ishlab chiqish, xalqaro maydonda PR-sheriklik loyihalarini amalga oshirish maqsadida yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan aloqalarni o‘rnatish
- B) – harbiy xizmatni o‘tab qaytgan yoshlarning ijtimoiy muammolarini hal etish, ularni ish bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratish, Qurolli Kuchlarning barcha davlat idoralari, muassasa va korxonalar uchun yetuk kadrlar tayyorlaydigan maktabiga aylanishiga erishish
- C) – xorijda o‘zbek tili, madaniyati va an‘analarini saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab quvatlash, yurtimizning boy ilmiy, madaniy va ma‘naviy merosini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish
- D) – xorijda ishlab qaytib kelgan shaxslarni reintegratsiya qilish, jumladan ularning bandligini ta‘minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslarini rag‘batlantirish

28.

[3,4 ball]

Xaritadagi A nuqtada sana 31-dekabr 2023-yil, mahalliy vaqt 16⁰⁰ ga teng. B nuqtada mahalliy vaqt 20⁰⁰ ga teng.



B nuqtadagi sana (kun, oy va yil) ni aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

29.

[3,4 ball]

Matnni o‘qing.

“Bolqon yarimorolining shimoli-g‘arbida joylashgan Sloveniya hududida ohaktoshlardan tarkib topgan Kras platosi mavjud. Bu plato tabiati yarimorolda yaqqol ajralib turadi. Hudud bo‘ylab karst landshaftlari – g‘orlar, quduqlar, voronkasimon chuqurliklar shakllangan. Yerusti svlari deyarli kuzatilmaydi. O‘simlik qoplami juda siyrak. Xo‘jalik faoliyati uchun murakkab hudud hisoblanadi”.

Keltirilgan ma’lumotlarda geografik qobiqning qaysi qonuniyati namoyon bo‘lganini aniqlang.


Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

30.

[3,4 ball]

Chizmadagi A nuqtada havo bosimi 760 mm Hg, B nuqtadagi havo harorati (-1,2) °C ga teng.




Chizmada **gorizontallar** necha metrdan o‘tkazilganligini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

31. [2,4 ball]

Chizmada korxonaning iqtisodiy aloqalari aks ettirilgan.



Kimyo korxonasi ishlab chiqarishning aynan qanday tashkiliy shakliga mos kelishini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

32. [3,4 ball]

Matnni o'qing.

“Postindustrial mamlakatlarda transport va aloqaning zamonaviy texnologiyalari rivojlanishi natijasida shahar iqtisodiyoti tarmoqlari va shahar turmush tarzi qishloq joylarda ham keng tarqalib bormoqda. Qishloq joylar rasman o'zining qishloq maqomini saqlab tursa-da, aslida, tub ma'noda shaharlashib ketmoqda. Shahar bilan qishloq joylar orasidagi ijtimoiy-iqtisodiy farq va chegaralar yo'qolib bormoqda”.

Matnda bayon etilgan jarayonni ifodalash uchun geografiya fanida qanday atama ishlatiladi?

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

33. [3,4 ball]

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib topshiriqni bajaring.

Mamlakatda doimiy yashovchi aholining demografik ko'rsatkichlari, 2021-y.		
Shahar aholisi, mln kishi	12,76	yil boshida
Qishloq aholisi, mln kishi	16,24	yil davomida
Tug'ilish	20	har 1000 kishiga nisbatan
O'lim	9	
Immigratsiya	1	
Emigratsiya	4	

2021-yilda aholi soni necha kishiga ko'payganini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

34. [2,4 ball]

Sutkalik havo haroratining eng yuqori ko'rsatkichi 12°C ga, havo haroratining sutkalik amplitudasi 16°C ga teng bo'lgan. Sutkalik havo haroratining eng past bo'lgan ko'rsatkichini aniqlang.

Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

35. [3,4 ball]

Bogota shahri (4° 38' sh.k., 74° 05' g'.u.) da mahalliy vaqt 12⁰⁰ bo'lganda, Islomobod shahri (33° 40' sh.k., 73° 10' shq.u.) dagi mahalliy vaqtni aniqlang.


Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

36.

[2,4 ball]

Tabiiy geografik okrugning sxematik xaritasi.



Sxematik xaritada Ziyovuddin va Turkiston tog‘lari qaysi raqamlar bilan belgilanganini mos ravishda aniqlang.


Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko‘chirib yozing.

37.

[3,4 ball]

Yozuvsiz xaritada yulduzcha bilan belgilangan hududga xos bo'lgan **iqlim tipini** aniqlang.



Javob: _____

Diqqat! Javobingizni javoblar varaqasiga ko'chirib yozing.

38-40.

Jadvaldagi ma'lumotlardan foydalanib, 38-40-test topshiriqlariga (A-F) javob variantlarini moslashtiring (har bir topshiriqqa bittadan to'g'ri javob mos keladi).

Topshiriqlar	Ma'lumotlar
<p>38. [2,4 ball] Markaziy Osiyo tabiiy geografik o'lkasiga oid ma'lumotlarni aniqlang.</p>	<p>A) Yerusti tuzilishi har xil bo'lib, tekisliklar, qoldiq tog'lar va ular orasidagi botiqlardan iborat. Hududida doimiy oqar suvlar (janubidagi tranzit daryodan tashqari) va ko'llar yo'q.</p> <p>B) Mo'tadil dengiz havosining ta'siri ostida, tekislik qismida yoz serquyosh, issiq va quruq, qish esa qisqa va iliq, tog'ga tomon harorat pasayib boradi.</p> <p>C) Mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan va hududida shu mintaqalarning o'rmon-dasht (tog' etaklari), chalacho'l, cho'l zonalari hosil bo'lgan.</p> <p>D) Hududi, asosan, tekisliklardan iborat bo'lib, katta qismi tropik iqlim mintaqasida joylashgan. Yozi juda issiq, qishi iliq.</p> <p>E) Hududining yuzasi past-baland qirlarni eslatadi. Katta qismi mo'tadil va subtropik, janubiy qismi esa tropik mintaqalarda joylashgan.</p> <p>F) Hududining janubiy qismida yozda subekvatorial iqlim sharoiti vujudga keladi, yozi issiq, qish esa sovuq bo'ladi.</p>
<p>39. [2,4 ball] Qizilqum tabiiy geografik okrugiga oid ma'lumotlarni aniqlang.</p>	
<p>40. [2,4 ball] Misr davlatining tabiiy sharoitiga oid ma'lumotlarni aniqlang.</p>	